

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHNI
FANLARARO ABSTSSESSIAL VA ORDINAL BOG‘LAB SHAKLLANTIRISHDA
INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH**

Xudayberganov G‘ayrat Quranboyevich,
Urganch Davlat universiteti katta o‘qituvchisi.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ФОРМИРОВАНИИ
КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ЧЕРЕЗ
МЕЖПРЕДМЕТНЫЕ АБСЦЕССИОНАЛЬНЫЕ И ОРДИНАТАЛНЫЕ СВЯЗИ**

Xudayberganov Gayrat Quranboyevich,
старший преподаватель Ургенчского государственного университета.

**THE USE OF INTERACTIVE METHODS IN THE FORMATION OF CREATIVE
THINKING OF PRIMARY SCHOOL PUPILS THROUGH INTERDISCIPLINARY
ABSCSSIONAL AND ORDINAL CONNECTIONS**

Xudayberganov Gayrat Quranboyevich,
Senior teacher at Urgench State University.

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni fanlararo abstsessial va ordinatal bog‘lab shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish asosida misol va masalalar yechish yo‘llari bayon qilingan.

Аннотация. В статье описаны примеры и способы решения задач на основе использования интерактивных методов в формировании креативного мышления учащихся начальных классов через межпредметные абсцессиональные и ординатальные связи.

Annotation. The article describes examples and methods for solving problems based on the use of interactive methods in the formation of creative thinking of primary school pupils through interdisciplinary abscessional and ordinal connections.

Kalit so‘zlar: kreativ, fikr, daraja, salohiyat, interfaol, metod, faoliyat, xotira, baho, mezon, komponent, natija, operatsiya, topshiriq.

Ключевые слова: креатив, мысль, уровень, потенциал, интерактив, метод, деятельность, память, оценка, критерий, компонент, результат, операция, задание.

Key words: creative, thought, level, potential, interactive, method, activity, memory, grade, criterion, component, result, operation, task.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni fanlararo abstsessial va ordinatal bog‘lab shakllantirishning asosiy sharti matematika darslarida turli interfaol metodlardan foydalanib o‘quvchilarga misol va masalalar yechish yo‘llarini o‘rgatishdir. Bu ularning kelgusi faoliyatida asqotadi. Matematik kreativ fikrlashning shakllanish darajasi, odatda, muayyan masalalarni yechish qobiliyati bilan belgilanadi.

1-masala. Meva va sabzavotlar narxi quyidagicha:

- 2 kg karam va 2 kg kartoshkaning narxi 1 kg banan narxiga teng;
- 3 kg sabzining narxi 1 kg uzumning narxi bilan bir xil;
- karam kartoshkadan 4 marta arzon;
- uzum olmadan ikki marta qimmat;
- sabzi kartoshkadan 1000 so‘m arzon.

Agar karamning narxi 500 so‘m bo‘lsa, qolgan meva va sabzavotlarning narxi qancha?

Javob: Kartoshka – 2000 so‘m, banan – 5000 so‘m, sabzi – 1000 so‘m, uzum – 3000 so‘m, olma – 1500 so‘m.

2-masala. Ota 45 yoshda, uning bir o‘g‘li 15 yoshda, ikkinchisi 11 yoshda, uchinchisi 7 yoshda. Necha yildan keyin otaning yoshi uning o‘g‘illari yoshining yig‘indisiga teng bo‘ladi.

Javob: O‘g‘illarining jami yoshi 33 yosh bo‘lib, otasining yoshidan 12 yosh kichik, har yili yosollarining farqi 2 yilga kamayib boradi va 6 yilda tenglashadi.


3-masala. Galadagi qushlar har bitta daraxtga bittadan qo‘nishgan edi, 4 ta qushga daraxt yetmay

qoldi. Har bir daraxtga ikkitadan qo'nishgan edi, qush qo'nmagan bitta daraxt ortib qoldi. Nechta qush va nechta daraxt bo'lgan?

Javob: daraxtlar 6 ta, qushlar 10 ta.

Matematika o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni fanlararo abstsessial va ordinatal bog'lab shakllantirish maqsadi, texnologik-jarayonli (protsessual) va natijaviy komponentlarini o'z ichiga qamrab olgan modeli ishlab chiqildi (1-rasm).

Matematika fanidan dars mashg'ulotlari jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni fanlararo abstsessial va ordinatal bog'lab shakllantirish maqsadli, texnologik-jarayonli (protsessual) natijaviy komponentlardan tashkil topgan tashkiliy-tuzilmaviy modeli ishlab chiqildi. Tashkiliy-tuzilmaviy model maqsadli, mazmunli, texnologik-jarayonli hamda natijaviylik komponentlari: maqsad – DTS, MT asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tayyorlash, matematika o'qitish jarayonida kreativ fikrlashni shakllantirishni o'z ichiga oladi; mazmun – matematik – kreativ fikrlashni shakllantirish hisoblanib, u quyidagi uch bosqichdan iborat: 1) nazariy matematik bilimlarni o'zlashtirish; 2) amaliy matematik ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni egallah; 3) nazariy matematik bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni egallah; texnologik-jarayonli komponent – metodologik yondashuvlar (muammoli-faoliyatli, kompetensiyaviy); tamoyillar: individuallashtirish, integratsiya, tizimlilik; metodlar: muammoli ta'lim texnologiyasi, aqliy hujum, didaktik o'yinlar; didaktik vositalar (matematik misol va masalalar, elektron ta'lim resurslari); natijaviy komponent matematik kreativ fikrlashni baholash mezonlari va darajalaridan iborat.



1-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni fanlararo abstsessial va ordinatal bog'lab shakllantirishning mantiqiy-tuzilmaviy modeli.

Matematika o‘qitish jarayonining muammoli faoliyati asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni fanlararo abstsessial va ordinatal bog‘lab shakllantirish bo‘yicha kognitiv, jarayonli, integrativ mezonlar aniqlandi.

Kognitiv mezoni – matematik tushunchalarning mazmun-mohiyatiga doir bilimlar – misol va masalalarni yechish usullari, asosiy ilmiy tushunchalar (ta’riflar, xossalalar, qoidalar, metodlar va boshqalar) mazmunini biliishi.

Jarayonli mezoni – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqni shakllantirish, matematik diktantlarni yoza olish, sonlarni qo‘sish va ayirish, ularni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi ko‘rinishida ifodalash, sonlarni ko‘paytirish va bo‘lish, sonlarni o‘zaro taqqoslash, geometrik shakl va kattaliklar haqida tasavvur hosil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish metodikalarini o‘zlashtirish.

Integrativ mezon – matematika fanini boshqa fanlar bilan didaktik sintezlay olish qobiliyatni, kreativ salohiyat, matematik kreativ fikrlash shakllanishi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisida kreativ fikrlashni fanlararo abstsessial va ordinatal bog‘lab shakllantirish imkoniyatini ta’minlovchi quyidagi interfaol metodlar takomillashtirildi va tajriba-sinovdan o‘tkazildi:



“Intellektual biatlon” metodi. Ushbu metod o‘quvchilarda fikrni jamlay olish, fikriy operatsiyalarni tezkor bajarish, fikrlashda egiluvchanlikka erishish, tezkor vaziyatda ham topshiriqni mukammal, to‘g‘ri bajarishga erishish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, o‘quv-bilish faolligini oshirishga yordam beradi. Metod musobaqa tavsifiga ega bo‘lib, o‘quvchilarga juftlikda, kichik guruhlarda va akademik jamoada ishslash uchun imkoniyat yaratadi. O‘quvchilar juftlik, kichik guruh yoki o‘quv materialining tavsifi, topshiriqning murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda, belgilangan vaqt oralig‘ida ikki turdag'i o‘quv topshiriqlarini bajarishlari kerak. Ikki turdag'i o‘quv topshirig‘i sifatida:

1) “Blis – so‘rov” – ijodiy ish (sxema, diagramma, tasvir);

2) tayanch tushunchalar tasnifi – test;

3) og‘zaki savol – javob – esse;

4) suhbat – yozma ish shakllarida beriladi.

	$1 + 4 = 5$ $2 + 5 = 12$ $3 + 6 = 21$ $8 + 11 = ?$
	$\square + \square + \square = 45$ $\triangle + \triangle + \square = 23$ $\triangle + \square + \square = 10$ $\square + \triangle + \triangle \times \square =$

“Bajarilgan topshiriqlar estafetasi” metodi. Ushbu metod o‘quvchilarda tezkor fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, o‘quv topshirig‘ining mohiyatini to‘la anglash orqali “muammo-yechim” o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni tushunish asosida jamoada ta’limiy yutuqqa yega bo‘lish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi. Unga ko‘ra, 4 nafar o‘quvchidan iborat jamoa mazmunan to‘rt xil bo‘lgan (to‘rtta shakldagi) o‘quv topshirig‘ini bajaradilar.

Metodning mohiyati shundan iboratki, jamoadagi har bir a’zo (o‘quvchi) faqat birgina topshiriqni bajaradi va navbatdagi topshiriqni bajarish uchun estafetani o‘z jamoadoshiga uzatadi. Bellashuv tavsifidagi ushbu metod ham avvaldan belgilangan vaqt oralig‘ida qo‘llaniladi. Har bir a’zo tomonidan qanday shakldagi topshiriqni bajarishi jamoadoshlar tomonidan aniqlanishi mumkin. Masala tortishuvlarga sabab bo‘ladigan bo‘lsa, u holda har bir a’zo uchun o‘quv topshirig‘ining shakli qur‘a tashlash yo‘li bilan aniqlanadi.

“Tizimlashtirilgan tushunchalar krossi” metodi. Metodning maqsadi o‘quvchilarni faollashtirish, ularda tezkor fikrlash qobiliyatini rivojlanishiдан iborat. Unga ko‘ra, o‘quvchilar jamoada, kichik guruhlarda o‘rganilgan yoki o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni tezkor, qisqa

muddatlarda tizimlashtira olishlari zarur. "Tizimlashtirilgan tushunchalar krossi" metodining "Aqliy hujum" metodidan farqli ravishda o'quvchilar juftlik yoki kichik guruhlarda belgilangan vaqt ichida tahlil qilinayotgan muammo (masala) yuzasidan imkon qadar tayanch tushuncha (yoki mavzuning tavsifli jihat)larini tizimlashtira olishlari zarur.

Takomillashtirilgan metodlarning amaliy qiymatini quyidagilar bilan asoslash mumkin:

1) o'quvchilarga kichik guruhlarda, juftliklarda birligida, o'zaro hamkorlik asosida o'quv topshiriqlarini bajarish imkoniyatini yaratadi;

2) metodlarni qo'llashda "tengdosh-tengdoshga" tamoyiliga amal qilinishi natijasida mavzu yoki topshiriq mohiyatini yetarlicha tushunmagan o'quvchi tengdoshlaridan ular to'g'risida ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'ladi;

3) kichik guruhlar yoki juftliklarda ishslash o'quvchilarda o'rganilayotgan mavzuga, o'quv materialiga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi;

4) kichik guruh yoki juftliklarda ishslashda o'quvchilar, tabiiyki, sinfdoshi, shergini qo'llab-quvvatlash, tinglash, unga yordam berish imkoniyatiga ega bo'ladi, natijada, ularning ijtimoiylashuvi namoyon bo'ladi. Bu esa ta'lim jarayonini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Matematikadan masala yechish va mashq bajarish mashq'ulotlarida kichik guruhlar bilan ishslash jarayonida masalalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Quyida masalalardan namunalar keltiriladi.

1-masala. Yuk avtomobili 15 soatda 951 km masofani bosib o'tishi kerak. U tosh yo'lida 40 km/soat tezlik bilan 2 soat yurdi. Qolgan yo'lni qanday tezlik bilan yurishi kerak?

Javob: 67 km/soat tezlik bilan yurishi kerak.

2-masala. Tarozining bir pallasida 12 ta nok, ikkinchi pallasida esa 2 ta bir xil tarvuz bor. Noklar turgan pallaga yana shunday tarvuzni qo'ysak, tarozi pallalari tenglashadi. Bitta tarvuzning og'irligi nechta nok og'irligiga teng?

Javob: 1 ta tarvuzning og'irligi 12 ta nokning og'irligiga teng.

3-masala. Bir mashinada har biri 80 kg dan 24 qop un keltirildi, ikkinchi mashinada shunday qoplarda 2 marta ko'p un keltirildi. Ikkinci mashinada necha kg un keltirilgan?

Masalaning qisqacha shartini quyidagicha yozish mumkin:

	Unli qoplar og'irligi	Qoplar soni	Umumi massasi
1-mashina	80 kg	24 qop	?
2-mashina	80 kg	24*2 (qop)	?

Masalaning qisqa shartini, grafik ko'rinishda ham tasvirlash mumkin.

Yechilishi. 1-usul:

1) $80 \times 24 = 1920$ (kg); 2) $1920 \times 2 = 3840$ (kg).

1-usulni tahlil qilamiz: masalada ikkinchi mashinada birinchi mashinaga qaraganda keltirilgan unli qoplar sonining 2 marta ko'pligini aytib o'tamiz. Demak, ikkinchi mashinada unli qoplarning og'irligi 2 marta ko'p bo'ladi. Grafik ko'rinishda bu jarayon yaqqol ko'rilib turadi.

2-usul:

1) $24 \times 2 = 48$ (qop);

2) $80 \times 48 = 3840$ (kg).

Shunday qilib, ikkinchi mashinadagi qoplar sonini topamiz va 80 ga ko'paytirib, necha kg un keltirilganini topamiz.

Bugungi tezkor zamonda o'quvchilarning matematik kreativ fikrlashini o'stirish, o'qitish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy ta'lim texnologiyalarining samarali imkoniyatlaridan foydalanish talab etilmoqda. O'quvchilar kreativ fikrlashini fanlararo abstsessial va ordinatal shakllantirish, ularda o'quv-bilish faolligini ta'minlashda quyidagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Interfaol ta'lim. 2. Muammoli ta'lim. 3. Hamkorlik ta'limi. 4. Loyiha ta'limi texnologiyalari.

Interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Interfaol ta'lim texnologiyalari o'qitish jarayoni qatnashchilari – o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhining o'zaro hamkorligi, qizg'in bahs-munozara, o'zaro fikr almashishi yuzaga keladi, ularda mustaqil kreativ fikrlash, o'z g'oyasini himoya qila olish, muammoli vaziyat yechimlarini hamkorlikda izlab topish, 1-4-sinf matematika darsliklarini qiyosiy tahlil qilishda o'quvchilarning

o‘zaro fikr almashishini yuzaga keltirish “o‘qituvchi – o‘quvchilar guruhi”ning o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, faolligi va topqirligi, ruhiy topqirliliklari, ijobiy munosabatda bo‘lishlari, ruhiy yakdilllikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.

Boshlang‘ich sinfda matematika darslarini interfaol metodlardan foydalanib tashkil etishning quyidagi afzalliklari mavjud: o‘quv materialini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi; o‘z vaqtida ta’lim jarayoni ishtiokchilari orasida ta’limiy aloqalar o‘rnataladi; ta’lim metodlari o‘quv jarayonida turli xil ko‘rinishlarda kechadi (yalpi, guruhli, individual); matematika faniga doir axborotlarni berish, olish, qayta ishlash orqali yaxshi esda qoladi; o‘quvchilarda o‘zaro muloqotga kirishish, fikr bildirish, mustaqil va mantiqiy fikr almashinish ko‘nikmalari rivojlanadi; o‘quv jarayonida o‘quvchining o‘ziga-o‘zi baho berishi, tanqidiy qarashi, o‘z ustida mustaqil ishslashi rivojlanadi; o‘quvchi uchun darsda bilimlar asosida masala yechish jarayoni qiziqarli o‘qitilayotgan o‘quv fani mazmuniga aylanadi. Dars jarayonida matematik qobiliyat, matematik fikr namoyon bo‘ladi. O‘quvchini o‘zini mustaqil fikr yurita olishga, topqirlikka, mushohada qilishga olib keladi; interfaol metoddasi o‘tilgan darslarda o‘quvchi faqat ta’lim mazmunini o‘zlashtiribgina qolmasdan, balki o‘zining tanqidiy va mantiqiy fikrlashini ham rivojlantiradi, matematik kreativ fikrlashi takomillashadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematika fanidan dars mashg‘ulot-larida interfaol metodlarning quyidagi shakllari taklif etiladi: juftlikda ishslash, kichik guruhlarda ishslash, aqliy hujum, rolli o‘yinlar, munozara, venn diagrammasi, klaster.

Yuqoridagilardan foydalanishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni fanlararo abstsessial va ordinatal bog‘lab shakllantirish maqsadini ko‘zda tutib, muammoni keltirib, o‘quvchilarni shu jarayonda ishslashga tayyorlab, u ma’lum malakalarga ega bo‘lgan holatlarda qo’llanilsa, matematik topqirligi, zehn o‘tkirligi, matematik qobiliyatning rivojlanganligi kabi kutilgan natijalarini olish mumkin.

Tadqiqot ishida hamkorlik ta’lim texnologiyalarining quyidagi ijobiy imkoniyatlarga ega ekanligi ta’kidlab o‘tildi: o‘quvchida matematik qobiliyat, mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish; o‘quvchiga chuqur bilim berish; o‘quvchida mustaqil va mantiqiy fikrlashni shakllantirish; o‘qituvchiga va sinfdoshlariga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish; o‘quvchida muloqot madaniyatini rivojlantirish; ijodiy va o‘zaro hamkorlik muhitini yaratish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni fanlararo abstsessial va ordinatal bog‘lab shakllantirishda mustaqil ishni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil ishi mazmuni matematik tushunchalarni o‘zlashtirish, mustaqil va mantiqiy fikrlash, matematik bilimlarni puxta o‘zlashtirish, bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiya elementlarini mustahkamlashga qaratilgan.

O‘quvchilarda kreativ fikrlashni fanlararo abstsessial va ordinatal bog‘lab shakllantirishda ular tomonidan mustaqil ta’lim topshiriqlarining to‘g‘ri, samarali bajarilishi muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarning mustaqil ta’limini tashkil etish shakllari interfaol, muammoli va hamkorlik ta’lim texnologiyalarining imkoniyatlari asosida takomillashtiriladi.

ADABIYOTLAR

1. Bikbayeva N.U. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – Т.: “O‘qituvchi”, 2007. -208 б.
2. Махмутов М.И. Организация проблемного обучения в школе. -М.: “Просвещение”, 1977. -240 с.
3. Jumayev M.E. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi –Т.: “Yangi asr avlod”, 2006.-186.
4. Хабиб Р.А. Организация учебно-познавательной деятельности учащихся. -М.: “Педагогика”. -1979.
5. Djurayev R.H. Ta’limda interfaol texnologiyalar. -T., 2010. -87 b.